

«PN USEVEN» mas’uliyati cheklangan jamiyati (O‘zbekiston Respublikasi). «SHIFOKORLAR UCHUN XALQARO SOVRINLAR O‘YINI» marketing AKSIYASINING to‘liq SHARTLARI (Keyingi o‘rinlarda — Shartlar)

Toshkent shahri

2026-yil 1-sentabr

1. Atamalar va ta’riflar

- 1.1. Aksiya** — «Shifokorlar uchun xalqaro sovrinlar o‘yini» nomi ostida o‘tkaziladigan marketing aksiyasi bo‘lib, ushbu Shartlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Aksiya rag‘batlantiruvchi tadbir, lotereya, tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar yoki garov tadbiri hisoblanmaydi.
- 1.2. Tashkilotchi** — «PN USEVEN» MChJ xususiy kompaniyasining vakolatxonasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko‘chasi, 21A-uy.

- 1.3.** Tashkilotchi tomonidan Internet tarmog‘ida joylashtirilgan Aksiyada ushbu Shartlarning 4.2-bandida ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirgan hamda ushbu Shartlarning 3.1-bandida ko‘rsatilgan mezonlarga javob beradigan shaxs Aksiya ishtirokchisi deb e’tirof etiladi.
- 1.4. Anketa** — shaxsiy ma’lumotlarni so‘rash uchun mo‘ljallangan so‘rovnoma.
- 1.5. G‘olib** — ushbu Shartlarning 5.2-bandiga muvofiq tasodifiy sonlar generatori yordamida tartib raqami tanlangan Ishtirokchi. G‘olib Aksiya o‘tkaziladigan butun davr mobaynida **1 (bitta) donadan ortiq sovg‘a** olishi mumkin emas.
- 1.6. Verifikatsiya** — Ishtirokchining aloqa ma’lumotlarining haqiqiyligini tekshirish jarayoni.
- 1.7. Aksiya sayti** — kabrita.uz/vracham/gift/
- 1.8. Randomayzer** — tasodifiy ketma-ketlikni (raqamlar, harflar, notalar, piksellar va h.k.) hosil qiluvchi dasturiy algoritim yoki qurilma.
- 2. Aksiyaning sovg‘alar jamg‘armasi va sovg‘alarni olish tartibi:**
- 2.1.** Aksiyaning sovg‘alar jamg‘armasi Aksiya Tashkilotchisining mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi va faqat Aksiya ishtirokchilariga sovg‘alar taqdim etish uchun ishlatiladi. Aksiyada ishtirok etish uchun to‘lov talab etilmaydi, Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan o‘yin hisoblanmaydi.

2.2. Aksiyaning sovg‘alar jamg‘armasi quyidagilardan iborat:

Sovg‘alar jamg‘armasi	Pediatrik stetoskop KaWe Child-Prestige	Xiaomi Redmi Watch 5 Active aqlli soati	Shifokor fonari. Tibbiy diagnostika vositasi	Lactoflorene mahsulotlari bilan sovg‘a to‘plami	Kabrita® mahsulotlari bilan sovg‘a to‘plami	Аптечка малыша dan sovg‘a to‘plami
Jami o‘ynaladigan sovg‘alar soni	1	1	10	5	10	5

Asosiy sovg‘a:

- **KaWe Child-Prestige pediatrik stetoskopi*** — 1 dona (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag‘lari hisobidan taqdim etiladi).

Qo‘shimcha sovg‘alar:

- **Xiaomi Redmi Watch 5 aqlli soati*** — 1 dona (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag‘lari hisobidan taqdim etiladi).
- **Shifokor fonari. Tibbiy diagnostika vositasi** — 10 dona (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag‘lari hisobidan taqdim etiladi).
- **Kabrita® mahsulotlari to‘plami** — 10 dona:
Kabrita® moslashtirilgan sutli bo‘tqasi 180 g (2 dona), echki sutli bolalar pechenyesi 115 g (1 dona), Kabrita® organik mevali

pyuresi 100 g (3 dona), Kabrita® 1 Gold aralashmasi 150 g (1 dona), kundalik (1 dona), taqvim (1 dona). (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag'lari hisobidan taqdim etiladi).

• **«Aptechka malysha» sovg'a to'plami:**

Dentinale® natura bolalar milklari uchun geli (10 dona), Windi® gaz chiqaruvchi naychalar 10 dona (1 qadoq). (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag'lari hisobidan taqdim etiladi).

• **Lactoflorene sovg'a to'plami:**

Lactoflorene Tsist (1 dona), Lactoflorene Xolesterol sashe (1 dona), Lactoflorene PJ (1 dona), Lactoflorene GASTRO sashe (1 dona), Lactoflorene Tsist B2B bukleti (1 dona), Lactoflorene Xolesterol B2B bukleti (1 dona), Lactoflorene PJ B2B bukleti (1 dona), Lactoflorene GASTRO B2B bukleti (1 dona). (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag'lari hisobidan taqdim etiladi).

Loyiha barcha ishtirokchilari uchun kafolatlangan sovg'alar:

• **Onalar uchun elektron qo'llanma** (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag'lari hisobidan taqdim etiladi).

*Sovg'a unga teng qiymatdagi o'xshash sovg'a bilan almashtirilishi mumkin.

2.3. Sovg'alarni pul ekvivalentiga almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

2.4. Tashkilotchi o'ziga bog'liq bo'lmagan har qanday holatlar sababli sovg'a egasi yutuqdan foydalana olmagan taqdirda javobgar bo'lmaydi.

2.5. Mazkur aksiya doirasida sovg'ani olish munosabati bilan yuzaga keladigan barcha tegishli soliqlar va davlat budgetiga majburiy to'lovlar Aksiya Tashkilotchisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va qonunchiligida belgilangan tartibda mustaqil ravishda to'lanadi.

2.6. Sovg'alarni topshirish muddati:

2026-yil 20-noyabrda o'tkaziladigan o'yin — sovg'alarni topshirish muddati 2026-yil 20-dekabrgacha.

3. Aksiya ishtirokchilari

3.1. Aksiya ishtirokchisi bo'lish va ushbu Shartlarning 2.2-bandida ko'rsatilgan **Asosiy sovg'a** hamda **qo'shimcha sovg'alarga** da'vogarlik qilish huquqiga faqat **18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, O'zbekiston Respublikasida yashovchi va ushbu Shartlarning 4.2-bandida nazarda tutilgan harakatlarni belgilangan tartibda amalga oshirgan tibbiyot xodimi** ega bo'lishi mumkin.

4. Aksiyani o'tkazish tartibi

4.1. Aksiyaning umumiy muddati: 2026-yil 01-sentabrdan 2026-yil 20-dekabrgacha.

Arizalarni qabul qilish muddati: 2026-yil 01-sentabr soat 00:00 dan 2026-yil 20-noyabr soat 10:00 gacha (Toshkent vaqti bilan, 20-noyabr kuni soat 10:00 ham qo'shilgan holda).

Sovg'alar o'yini 2026-yil 20-noyabr kuni o'tkaziladi.

4.2. Aksiyani o'tkazish tartibi: ishtirokchi 2026-yil 01-sentabrdan 20-noyabrgacha bo'lgan davrda **kabrita.uz/vracham/gift/** saytida anketani to'ldirishi, «Ishtirok etish» tugmasini bosishi, e-mail manzili orqali verifikatsiyadan o'tishi hamda Tashkilotchining rasmiy e-mail manzilidan **kabrita@kabrita.uz** yuboriladigan o'yin natijalari haqidagi axborot e-mail xabarlarini kuzatib borishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha harakatlar bajarilgan taqdirda, Ishtirokchi G'olib bo'lishi mumkin.

4.3. Anketada Ishtirokchi haqida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak: familiyasi, ismi, otasining ismi, e-mail manzili, telefon raqami, ish joyi, mamlakati, yashash shahri, mutaxassisligi.

4.4. O'yin o'tkazilishi haqidagi ma'lumot Aksiya Tashkilotchisining rasmiy saytida e'lon qilinadi: **kabrita.uz/vracham/gift/**

5. Aksiya g'oliblarini aniqlash tartibi

5.1. Aksiya g'oliblari o'yin o'tkaziladigan sanada «randomayzer» ilovasining ishlashi videoyozuvi orqali aniqlanadi (Tashkilotchi ilovani tanlash huquqini o'zida saqlab qoladi). Ilovaga 4.1-bandda ko'rsatilgan davr mobaynida kelib tushgan barcha arizalar yuklanadi.

Videoyozuv Tashkilotchining kanalidagi yopiq havola orqali joylashtiriladi. Har bir Ishtirokchiga Tashkilotchi e-mail orqali o'yin natijalari va videoyozuvga havolani yuboradi.

5.2. G'oliblar quyidagi tartibda aniqlanadi:

2026-yil 20-noyabr kuni o'tkaziladigan o'yin:

Avval **Kabrita® mahsulotlari to'plami** — 10 dona sovg'ani oladigan 10 nafar ishtirokchi aniqlanadi (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag'lari hisobidan taqdim etiladi);

keyin **«Aptechka malysha» sovg'a to'plami** — 5 dona sovg'ani oladigan 5 nafar ishtirokchi aniqlanadi (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag'lari hisobidan taqdim etiladi);

keyin **Lactoflorene sovg'a to'plami** — 5 dona sovg'ani oladigan 5 nafar ishtirokchi aniqlanadi (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag'lari hisobidan taqdim etiladi);

keyin **Shifokor fonari. Tibbiy diagnostika vositasi** — 10 dona sovg'ani oladigan 10 nafar ishtirokchi aniqlanadi (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag'lari hisobidan taqdim etiladi);

keyin **Xiaomi Redmi Watch 5 aqli soati** — 1 dona sovg'ani oladigan 1 nafar ishtirokchi aniqlanadi (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag'lari hisobidan taqdim etiladi);

so'ng **KaWe Kinder-Prestige LIGHT bolalar pediatrik stetoskopi** — 1 dona sovg'ani oladigan 1 nafar ishtirokchi aniqlanadi (Aksiya Tashkilotchisi tomonidan va uning mablag'lari hisobidan taqdim etiladi).

5.3. Mazkur Aksiya doirasida jami 32 nafar g'olib bo'lishi mumkin.

5.4. Asosiy sovg'a g'olibi g'olibligi e'lon qilingandan so'ng darhol Aksiya Tashkilotchisi bilan bog'lanishi va Tashkilotchining kabrita@kabrita.uz rasmiy elektron manziliga xat yuborishi kerak.

5.5. Aksiya Tashkilotchisi o'yin o'tkazilgan kuni e-mail orqali yuboriladigan xabar orqali Aksiya ishtirokchilariga g'oliblarning ismlarini ma'lum qiladi.

5.6. G'oliblar va o'yin natijalari Aksiyaning rasmiy saytida — kabrita.uz/vracham/gift/ — 2026-yil 20-noyabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 17:00 gacha e'lon qilinadi.

6. Tartib va sovg'alarni olish muddatlari

6.1. Sovg'alar G'oliblar aniqlangandan so'ng, Aksiya Tashkilotchisi tomonidan ushbu Shartlarning 2.6-bandida ko'rsatilgan muddatda G'olibga topshiriladi.

6.2. Sovg'alarni yuborish kuryerlik xizmatlari orqali yoki e-mail orqali amalga oshiriladi. Sovg'alarni yuborish Aksiya Tashkilotchisi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Aksiya Tashkilotchisi kuryerlik xizmatlari tomonidan tashish va yetkazib berish majburiyatlarining bajarilmaganligi uchun javobgar emas, agar ushbu majburiyatlarning lozim darajada bajarilmasligi natijasida Sovg'aning yo'qolishi, buzilishi (shikastlanishi), yetkazib berilmasligi yoki Sovg'ani yetkazib berishning kafolatlangan muddatlari buzilishi yuz bergan bo'lsa. Sovg'ani Aksiya Tashkilotchisi tomonidan kuryerlik xizmatining vakolatli vakiliga topshirgan paytdan boshlab, uni tegishli tarzda tashish va yetkazib berish majburiyatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik kuryerlik xizmatlari zimmasiga yuklanadi.

6.3. Sovg'ani olish uchun Aksiya G'olibi 2026-yil 30-noyabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 17:00 dan kechiktirmay kabrita@kabrita.uz elektron manziliga quyidagi hujjatlarni yuborishi shart: O'zbekiston Respublikasi fuqarosining asosiy ma'lumotlari (pasport seriyasi va raqami, F.I.Sh., tug'ilgan sana va joyi, JShShIR) ko'rsatilgan pasport sahifalarining (2–3-sahifalar) skan nusxasi, ro'yxatdan o'tgan manzil ko'rsatilgan sahifaning skan nusxasi, soliqliq hisobiga oid ma'lumotlar (mavjud bo'lsa), sovg'ani yetkazib berish manzili.

6.4. Taqsimlanmagan va talab qilib olinmagan sovg'alar, shuningdek G'oliblar olishdan bosh tortgan yoki ushbu Shartlarning 2.6-bandida ko'rsatilgan muddatda olinmagan sovg'alar Aksiya Tashkilotchisi tomonidan o'z xohishiga ko'ra tasarruf etiladi. Sovg'alar G'oliblar tomonidan qayta talab qilib olinishi mumkin emas.

6.5. Aksiya sovg'asining sifati bo'yicha Tashkilotchining majburiyatlari uning ishlab chiqaruvchilari tomonidan taqdim etilgan kafolatlar bilan cheklanadi. Sovg'aning sifati bo'yicha G'olibning da'volari bevosita ishlab chiqaruvchilarga taqdim etilishi lozim.

6.7. Sovg'a G'olibga topshirilgan paytdan boshlab Aksiya Tashkilotchisining Sovg'ani topshirish bo'yicha majburiyati bajarilgan deb hisoblanadi.

6.8. Sovg'aning tashqi ko'rinishi (rangi, o'lchami), dizayni va boshqa xususiyatlari Ishtirokchilarning kutganlariga mos kelmasligi hamda Aksiya o'tkazilishi haqida iste'molchilarni xabardor qilishga mo'ljallangan reklama-axborot materiallarida keltirilgan Sovg'a tasvirlaridan farq qilishi mumkin.

6.9. Sovg'alar soni cheklangan, Aksiya Tashkilotchisi tomonidan qo'shimcha sovg'alar berilmaydi.

6.10. Agar Aksiya G'olibi ushbu Shartlarga muvofiq sovg'ani olishdan bosh tortsa yoki Aksiya Tashkilotchisining ushbu Shartlarni buzuvchi harakatlari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra sovg'ani olmasa, Tashkilotchi tegishli Ishtirokchini Aksiya G'olibi deb e'tirof etish to'g'risidagi qarorni bekor qilishga haqli.

7. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash

7.1. Aksiya saytida <https://www.kabrita.uz/vracham/gift/> anketani to'ldirgan va «Ishtirok etish» tugmasini bosgan, ya'ni ushbu Shartlarning 4.2-bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan har bir Aksiya Ishtirokchisi Aksiyaning to'liq Shartlari, Maxfiylik siyosati shartlariga rozilik bildiradi hamda shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga va tarqatishga ruxsat etilgan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik beradi. Shuningdek, xabarnomalarni olishga roziligini tasdiqlagan holda, Aksiya Tashkilotchisidan xabarlarni olishga rozilik beradi.

Shaxsiy ma'lumotlar — familiya, ism, otasining ismi, e-mail manzili, mobil telefon raqami, ish joyi, mamlakat, yashash shahri, mutaxassislik — marketing aksiyasini o'tkazish, sovg'alarni taqdim etish, shuningdek keyinchalik reklama va boshqa axborotlarni taqdim etish maqsadlarida foydalaniladi va saqlanadi. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash muddati ular taqdim etilgan paytdan boshlab **15 yildan oshmasligi kerak** (yoki Ishtirokchi shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligini bekor qilgan taqdirda, undan kam muddat).

7.2. Ishtirokchi Aksiya yakunlanganidan so'ng Tashkilotchiga yozma shaklda xabarnoma yuborish orqali shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligini qaytarib olish huquqiga ega.

7.3. Tashkilotchi, shuningdek, Ishtirokchi tomonidan tegishli harakatlarni amalga oshirish doirasida Ishtirokchi va Tashkilotchi o'rtasida tuzilgan alohida kelishuv asosida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlaydi.

7.4. Tashkilotchi va u jalb qilgan shaxslar Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-son «**Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuni** bilan belgilangan prinsip va qoidalariga qat'iy muvofiq ravishda qayta ishlaydi, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida ularning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek ularni qayta ishlash va himoya qilishga qo'yiladigan talablarga rioya qiladi.

Tashkilotchi Aksiya davomida Ishtirokchiga axborot va reklama xabarlarini yuborishga haqli. Ishtirokchi bunga, shu jumladan o'zining shaxsiy ma'lumotlaridan ushbu maqsadlarda foydalanilishiga rozilik beradi. Mazkur rozilik yuqorida ko'rsatilgan tartibda qaytarib olinishi mumkin.

7.5. Aksiya G'oliblari g'olib deb e'tirof etilgan taqdirda, ushbu Shartlarning 6.3-bandida ko'rsatilgan qo'shimcha shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etishga avtomatik ravishda rozilik beradi.

7.6. Aksiya G'oliblari Aksiya Tashkilotchisiga ushbu Shartlarning 6.3 va 7.1-bandlarida ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlarini sovg'alarni Aksiya G'oliblariga topshirish maqsadida ushbu Shartlarning 1.2-bandida ko'rsatilgan Aksiya hamkorlariga berishga rozilik beradi.

7.7. Aksiyada ishtirok etish, ya'ni ushbu Shartlarning 4.2-bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish orqali, Ishtirokchi g'olib deb e'tirof etilgan taqdirda, bu haqidagi ma'lumot, uning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash shahri haqidagi ma'lumotlar hamda telefon raqamining oxirgi 4 ta raqami Tashkilotchi tomonidan Aksiyaning rasmiy saytida <https://www.kabrita.uz/vracham/gift/> va barcha Aksiya Ishtirokchilariga yuboriladigan e-mail xabarlarida e'lon qilinishi mumkinligini tasdiqlaydi.

7.8. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi o'z xohish-irodasi va o'z manfaatlaridan kelib chiqib, shaxsiy ma'lumotlarini keyinchalik qayta ishlash uchun uchinchi shaxslarga quyidagi shartlar asosida berishga rozilik beradi: shaxsiy ma'lumotlar mazkur Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq maqsadlarda, shuningdek reklama takliflarini yuborish (Ishtirokchining tegishli roziligi mavjud bo'lgan taqdirda), marketing tahlilini o'tkazish va statistik ma'lumotlarni tayyorlash maqsadlarida foydalaniladi.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Ushbu Shartlarning 4-bo'limida nazarda tutilgan barcha shartlarni bajarmagan shaxslar Aksiyada ishtirok etish va kafolatlangan sovg'ani olish huquqiga ega emas.

8.2. Tashkilotchi Ishtirokchining mazkur Aksiyada ishtirok etishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va ushbu Shartlarda ko'rsatilmagan zararlar, xarajatlar va boshqa har qanday sarf-xarajatlarni qoplamaydi yoki kompensatsiya qilmaydi.

8.3. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar emas:

- telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi nosozliklar, zararli dasturlar ta'siri va boshqa fors-major holatlar, uchinchi shaxslarning insofsiz harakatlari natijasida Ishtirokchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik;

- Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan texnik yoki boshqa sabablarga ko'ra Ishtirokchilardan kafolatlangan sovg'ani olish uchun zarur bo'lgan xatlar va/yoki ma'lumotlarning, shu jumladan belgilangan muddatda, olinmasligi;
- Ishtirokchilar tomonidan ushbu Shartlarga muvofiq to'liq bo'lmagan va/yoki noto'g'ri aloqa ma'lumotlari hamda boshqa ma'lumotlarning taqdim etilishi;
- aloqa tashkilotlarining aybi, texnik muammolar va/yoki Internet tarmog'idagi firibgarlik, Aksiya o'tkazishda foydalaniladigan aloqa kanallari bilan bog'liq muammolar yoki Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablar tufayli Internet yoki faks orqali ma'lumotlarni uzatishdagi xatolar/nosozliklar;
- Ishtirokchilarning ushbu Shartlarda nazarda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasligi yoki o'z vaqtida bajarmasligi.

8.5. Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

- Aksiya o'tkaziladigan davr mobaynida ushbu Shartlarga o'zgartirishlar kiritish. Bunda ushbu Shartlarga kiritilgan har qanday o'zgartirishlar haqidagi ma'lumot Aksiya saytida <https://www.kabrita.uz/vracham/gift/> joylashtiriladi;
- ushbu Shartlarda nazarda tutilgan holatlardan tashqari, Aksiya Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa har qanday aloqaga kirishmaslik;
- ushbu Shartlarda nazarda tutilgan hollarda Ishtirokchilardan zarur ma'lumotlarni so'rash;
- Aksiya Ishtirokchilari sovg'alarni talab qilmagan yoki ularni olishdan bosh tortgan taqdirda, talab qilinmagan sovg'alarni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish;
- Ishtirokchi tomonidan ushbu Shartlarga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, unga sovg'ani berishni rad etish;
- Ishtirokchi ushbu Shartlarning 6.4–6.5-bandlarida ko'rsatilgan qo'shimcha shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortgan taqdirda, unga sovg'ani berishni rad etish.

8.6. Aksiya ishtirok etish fakti Ishtirokchining ushbu Shartlar bilan tanishganligini va ularga to'liq roziligini anglatadi.

8.7. Tashkilotchi xodimlari va vakillari, unga aloqador shaxslar hamda ularning oila a'zolari Aksiya ishtirok etishga qo'yilmaydi.

8.8. Sovg'alar qaytarib berilmaydi, almashtirilmaydi va boshqa buyumlar yoki pul ekvivalentiga ayirboshlanmaydi.

8.9. Savollar yuzaga kelgan taqdirda, ularni Aksiya Tashkilotchisiga kabrita@kabrita.uz elektron manzili yoki +998 71 205 81 03 telefon raqami orqali yuborish mumkin.